



O'RGANILAYOTGAN HUDUD TUPROQLARINING TABIIY IQLIM SHAROITI

O.A. Jabborov

“Tuproq tarkibi va repozitoriysi sifati tahlil markazi” davlat unitar korxonasi

M.O. Sodiqova

Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy Universiteti

O'rganilayotgan hudud atmosfera yog'inlari notekis taqsimlanishi hamda qurg'oqchilik, issiqlik va yorug'lik ko'p bo'lishi bilan ajralib turadi. Ushbu hudud o'ziga xos iqlimiy sharoitga ega. Hududda tog' tizmalari bilan himoyalanganligi sababli sovuq havo massasining kirib kelishiga to'sqinlik qiladi [2].

Farg'ona viloyati Furqat tumani Turon subtropik iqlim mintaqasining O'rta Osiyo quruq kontinental iqlim provinsiyasiga kiradi. Yerni tabiiy-qishloq xo'jalik rayonlashtirish sxemasiga ko'ra, Farg'ona viloyati subtropik cho'l zonasiga mansub bo'lib, Farg'ona okrugini tashkil etadi. Farg'ona vodiysi atrofi tog'lar bilan o'ralgan tektonik cho'kmada joylashganligi sababli, iqlimi keskin kontinental (arid). Qish sovuq va iliq kunlar bilan tez-tez almashib turadi, bahor erta keladi va issiq, quruq yoz bilan tezda almashadi, yog'in-sochin kam yog'adi, yog'in yil davomida tekis taqsimlanmaydi.

Havoni harorati, namlik darajasi sutka, oy va yil davomida keskin o'zgarib turadi, bu holat qishloq xo'jaligi ekinlarining vegetatsiya davriga bevosita ta'sir etadi. Havoning harorat va namlik darjasiga ko'ra, viloyatda (tumanda) ikkita termik faza: bahorgi namlik davri qisqa bo'lgan – mezotermik va uzoq davom etadigan yozgi quruq va issiq – kserotermik fazalar kuzatiladi. Bu fazalar tuproq hosil bo'lish jarayonlarining mavsumiyligi bilan bog'liq holda, tabiiy landshaftlar qiyofasiga sezilarli ta'sir ko'rsatadi. Vegetatsiya davrida uzoq davom etadigan issiq va jazirama harorat tumanda issiqsevar ekinlar – g'o'za, boshqoli don ekinlari hamda anjir, anor, uzum, xurmo va boshqa o'simliklarni etishtirish imkonini beradi. Quyosh nuri va issiqlikni mo'l bo'lishi tufayli g'o'za, boshqoli don ekinlari tez pishib etiladi [1,3].

Farg'ona vodiysining g'arbiy va markaziy qismlari cho'l mintaqasiga sharqiy qismi esa chala cho'l mintaqasiga kiradi. Furqat tumani iqlim sharoitini “Qo'qon” va “Ultarma” meteorologik stansiyalari ma'lumotlari asosida ta'riflash mumkin [4].

Tuman hududlarida havoning ko'p yillik o'rtacha harorati +13 +13,5⁰S atrofida kuzatiladi. Yilning eng sovuq oyi yanvar bo'lib, uning o'rtacha harorati -2,1 -3,2⁰S. Eng issiq oy iyul oyi bo'lib, o'rtacha harorat +26,8 +27,5⁰S ni tashkil etadi, ayniqsa oktyabr-noyabr oylarida harorat sezilarli darajada pasayadi. Iyul oyining absolyut maksimum harorati +42 +46⁰ ko'rsatkichlarida qayd etiladi. 10⁰S dan yuqori harorat yig'indisi cho'lda 4590-4600⁰S ni tashkil etadi.


Atmosfera yog'inlarning miqdori g'arbdan sharqqa va vodiya markazidan shimolga hamda janubga tog'lar tomon ortib boradi. Bu ko'rsatkich 86 mm dan 109 mm gacha etadi. Yillik yog'inning asosiy qismi, ya'ni 60% dan ko'prog'i qish va bahor oylariga to'g'ri keladi. Havoning nisbiy namligi yoz davrida 46-50%, qishda esa 77-82% ni






tashkil qiladi. Bug'lanish yog'inga qaraganda bir necha marta yuqori, havoning quruq va haroratning yuqori bo'lishi sababli uning miqdori 1200-1500 mm ga etadi. Shamol faoliyati ham vodiy bo'ylab bir xil emas. Sharqiy qismida qish va bahor oylarida shamol kuchli esadi. Qish va bahor oylarida sharqiy va bahor oylarida g'arbiy yo'nalishlarda shamollar ko'proq esadi. Vegetatsiya davridagi kuchli shamolli (tezligi 15 m/sek dan yuqori) kunlar soni "Qo'qon" meteostansiyasi bo'yicha 44,5 kunga teng. Vodiyning tog'li qismlarida esa yog'ingarchilik ancha ko'p. Buning natijasida Farg'ona vodiysida o'ta kontinental va quruq cho'l mintaqalaridan boshlab, yiliga 1500-2000 mm yog'in yog'adigan qariyb dengiz iqlimli hududlar ham mavjud bo'lib, vertikal zonallik yaqqol seziladi. Umuman olganda esa vodiya iqlim kontinental, yozi issiq, bahor va kuzi salqin va qishi nisbatan sovuq. Yil davomida quyosh 2550-2800 soat nurini sochib turadi va bu jihatdan vodiy Toshkent va Bayramalidan qolishmaydi. Summar quyosh radiyasiyasi yiliga 150 kkal/sm² bo'lib, yuqoriga chiqqan sari oshib boradi va 4000 m balandlikda 170 kkal/sm² atrofida bo'ladi (1-2 diagramma).

1-diagramma



2-diagramma





Iqlim hosil bo'lishida muhim ahamiyat kasb etuvchi atmosfera sirkulyasiyasi qish oylarida Sibir antisikloni ta'sirida bo'lib, kam bulutli, ba'zan tumanli ob-havoning ko'p vaqt (40-50%) kuzatilishiga sabab bo'ladi. Bunda ob-havoning o'zgarishi sovuq havo frontlarida to'liqlik faoliyat yuzaga kelishi, ba'zi hollarda shimoliy, shimoliy-g'arbiy va g'arbiy havo oqimlarining kelishi bilan bog'liq bo'ladi. Bahor oylarida frontal jarayonlarning takroriyliqi katta bo'lib, bulutli, yog'inli va tumanli ob-havo ko'p kuzatiladi. Yoz oylarida O'rta Osiyo hududida kichik gradiyentli barik maydon ko'p kuzatilib, frontal jarayonlar, ayniqsa sekin siljuvchi yuqori siklon uchun sharoit ko'p bo'ladi; ammo transformasion jarayonlarning kuchliligi sababli ular ob-havoda sezilarli o'zgarishlar chiqara olmaydi. Kuzda ham kichik gradiyentli maydonning takroriyliqi katta (30-40%), ammo sovuq havoning kelishi ob-havoda ancha sezilarli o'zgarishlar beradi, havoning keskin sovushi, kuchli shamollar kuzatiladi.

Eng kam yog'inli oy vodiyning ko'p qismida avgust yoki sentyabrdir. Bu oylarda yillik yog'in miqdorining 2-3% i kuzatiladi. Faqat Turkiston va Oloy tizma tog'larining baland tog' qismlarida eng kam yog'in qish oylarida – dekabr, yanvar yoki fevralda qayd etilib, yillik yog'inning 3-4% ni tashkil etadi.

Baland tog'li rayonlarda yog'in asosan qor shaklida yog'adi. 2500 balandlikda qor va yomg'ir nisbati bir xil, undan quyida esa yomg'ir ko'proq yog'adi. Tog'larda qorning to'planishi va uning bahor va yozda erib, daryolarni to'yintirishi sug'orma dehqonchilik uchun o'ta ahamiyatlidir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Andijon, Namangan va Farg'ona viloyatlari tuproqlari holati hamda unumdorligi past yerlarda qishloq xo'jaligi ekinlarini joylashtirish va yetishtirish agrotexnologiyalari bo'yicha tavsiyalar – "O'zbekiston Respublikasi Qishloq va Suv xo'jaligi vazirligi" Toshkent-2017.





2. Ro'zmetov M.I., Jabborov O.A. va boshqalar. O'zbekiston sug'oriladigan yerlarining meliorativ holati va ularni yaxshilash. Toshkent-2018.-B.157-158.

3. Qo'ziyev R.Q., Sektimenko V.Y., Ismonov A.J. O'zbekiston Respublikasi tuproq qoplami Atlasi. – "Yergeodezkadastr" Davlat qo'mitasi, Toshkent-2010.

4.O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi gidrometrologiya xizmat markazi ma'lumotlari.

